## 1-jild

# Qur’oni Karim ma’nolarini o‘rganish darsligi

Andishai nur muassasasining mualliflar guruhi




Bismillahir Rohmanir Rohiym.
Mehribon va Rahmli Alloh nomi bilan

**Qur’on Karim ma’nolarini o`rganish darsligi**

Andishai nur nomli muassasaning mualliflar guruhi
Hashriyot mas’uli:
Bosmaxona:
Chop navbati (Birinchi): 2009 - 1430 - 1387
Adadi: 1000 nusxa
Betlar soni: 161
ISBN:

**©Kitobning barcha huquqlari noshir uchun himoyalangan**

# Mundarija

Kirish:........................................................................ 8

**Birinchi dars**

Qur’on Allohni tanishlik kitobi.......................................12
Tanish so‘zlar..........................................................14
Yangi so‘zlar...........................................................15
Mashqlar.................................................................16

**Ikkinchi dars**

Alloh Olamning Parvardigori......... **Error! Bookmark not defined.**
Tanish so‘zlar..........................................................22
Yangi so‘zlar...........................................................23
Mashqlar.................................................................24

**Uchinchi dars**

Allohga hamdu sano va maqtov.......................................28
Tanish so‘zlar..........................................................30
Yangi so‘zlar...........................................................31
Mashqlar.................................................................32

**To‘rtinchi dars**

Mo‘’minlarning do‘sti va sarparasti.................................36
Tanish so‘zlar..........................................................38
Yangi so‘zlar...........................................................40
Mashqlar.................................................................41

**Beshinchi dars**

Qur’on hidoyat kitobi....................................................45
Tanish so‘zlar..............................................................47
Yangi so‘zlar...............................................................48
Mashqlar.....................................................................49

**Oltinchi dars**

Qiyomat qayta tirilishdir................................................53
Tanish so‘zlar..............................................................56
Yangi so‘zlar...............................................................57
Mashqlar.....................................................................58

**Ettinchi dars**

Payg‘ambarlar dilso‘z va mehribondirlar .......................62
Tanish so‘zlar..............................................................64
Yangi so‘zlar...............................................................65
Mashqlar.....................................................................66

**Sakkizinchi dars**

O‘zimizni tekshiraylik....................................................70
Mashqlar.....................................................................71

**To‘qqizinchi dars**

Ilohiy Payg‘ambarlar.....................................................84
Tanish so‘zlar..............................................................86
Yangi so‘zlar...............................................................87
Mashqlar.....................................................................88

**O‘ninchi dars**

Payg‘ambarlar da’vati ....................92
Tanish so‘zlar ....................94
Yangi so‘zlar ....................94
Mashqlar....................96

**O‘n birinchi dars**

Qur’on hidoyat yo‘li va abadiy mo‘’jizadir ....................101
Tanish so‘zlar ....................103
Yangi so‘zlar ....................103
Mashqlar....................105

**O‘n ikkinchi dars**

Alloh yaxshiroqmi yoki mushriklar ibodat qiladigan narsalar?! ....................109
Tanish so‘zlar ....................111
Yangi so‘zlar ....................112
Mashqlar....................113

**O‘n uchinchi dars**

Olam Allohning belgisi ....................117
Tanish so‘zlar. ....................119
Yangi so‘zlar. ....................120
Mashqlar....................121

**O‘n to‘rtinchi dars**

Taqvo va imon ........................................................125
Tanish so‘zlar. ......................................................127
Yangi so‘zlar. .......................................................128
Mashqlar................................................................129

**O‘n beshinchi dars**

Alloh, Payg‘ambarlar va Oxirat Kuni .............................133
Tanish so‘zlar. ......................................................135
Yangi so‘zlar .........................................................136
Mashqlar................................................................138

**O‘n oltinchi dars**

O‘zimizni tekshiraylik...............................................142
Mashqlar................................................................142

# Kirish:

Qur’oni Karim Alloh ta’olo tomonidan yuborilgan oxirgi ilohiy kitob bo‘lib, barcha insonlar saodatli, baxtli hayot kechirishlari uchun eng maqbul yo‘llarni ko‘rsatib bergan. Shuning uchun ular doimo Qur’on ta’limoti va ko‘rsatmalaridan foydalanib, to‘g‘ri va haq yo‘lni topishga, yashab turgan davrlarining zalvorli hamda buhronli sharoitida o‘z dardlarini davolashga muhtojdirlar. Alloh ta’olo Qur’oni Karimda bu haqda shunday buyuradi:

{يَأَيُّهَا النَّاسُ قَدْ جَاءَتْكُم مَّوْعِظَةٌ مِّن رَّبِّكُمْ وَ شِفَاءٌ لِّمَا فِي الصُّدُورِ وَ هُدًى وَ رَحْمَةٌ لِّلْمُؤْمِنِينَ}

*«Ey insonlar, sizlarga Pavardigoringiz tomonidan pand-nasihat va qalblaringizdagi narsalarga shifo va mo`’minlar uchun hidoyat va rahmat (Qur’on) keldi» (Yunus57-oyat)*

Mazkur oyati sharifadan maъlum bo‘ladiki, insonlarning hayotini achchiq qilgan va ularning yashashga intilib, qiziqishiga to‘sqinlik qilgan, boshqacha qilib aytganda, insonlarning yashashga bo‘lgan umidlarini so‘ndirib, ularni hayotdan bezor qilgan, jamiyatning ko‘rinmas botiniy dardlariga shifo berguvchi narsa, shak-shubhasiz, faqatgina Allohning oxirgi kitobi bo‘lmish Qur’oni Karimdir. Shunday ekan, Qur’oni Karim birinchi navbatda, marosimlarni o‘tkazish va ota-bobolarning ruhlarini shod qilish uchungina tilovat qilinmasdan, bu dunyoda baxtu - saodatli, izzatli va yuksak insoniy hayot kechirishimiz uchun hamda oxirat kuni Allohning huzurida amallarimiz

hisob-kitob qilinayotganda sharmandayu sharmsor bo‘lmay, yuzimiz yorug‘ bo‘lishi uchun o‘qib o‘rganadigan zaruriy kitobdir.

Shunday ekan, Qur’onni tushunib etish va uning har bir oyati haqida fikr yuritish, undan pand-nasihat va ibrat olish, Allohning Qur’ondagi ko‘rsatmalaridan bahramand bo‘lish va shuning oqibatida har bir kishi o‘zining dunyo va oxiratini obod qilishiga baholi qudrat ko‘maklashish maqsadida qo‘lingizdagi «Qur’oni Karim ma’nolarini o‘rganish darsligi» deb nomlangan kitob tayyorlandi. Bu borada diqqatingizni Qur’onning ba’zi oyatlariga qaratamiz:

{وَ لَقَدْ يَسَّرْنَا الْقُرْءَانَ لِلذِّكْرِ فَهَلْ مِن مُّدَّكِرٍ}

*«Darhaqiqat, Biz Qur'onni eslatma olish uchun oson qilib qo`ydik. Demak, biror eslatma olguvchi bormi? ».* (Qamar 17- oyat)

{وَ يُبَيِّنُ ءَايَاتِهِ لِلنَّاسِ لَعَلَّهُمْ يَتَذَكَّرُونَ}

*«Va (Alloh ta'olo) O`z oyatlarini insonlar uchun bayon qiladi, shoyad ular (ushbu oyatlar bilan) eslatma olurlar ». (Baqara 221- oyat)*

{وَ تِلْكَ الْأَمْثَالُ نَضْرِبُهَا لِلنَّاسِ لَعَلَّهُمْ يَتَفَكَّرُونَ}

*«Va Biz bu misollarni insonlar uchun, shoyad ular tafakkur qilsalar, deb keltirurmiz». (Hashr,21- oyat)*

Ushbu oyatlardan ma’lum bo‘ladiki, Qur’on oyatlarini tilovat qilish va ularni bayon etish, insonni fikr yuritishga va pand-nasihat va ibrat olishga olib kelishi lozim.

Qur’oni Karim 77 mingga yaqin kalimalardan tashkil topgan bo‘lib, ular ba’zilarining takrorlanib kelishi hisobga olinmaganda, Qur’on so‘zlari 11 mingga yaqindir. Diqqatimizni o‘ziga jalb qiladigan narsa shundan iboratki,

Qur'onda mingga yaqin so'zgina ko'p qayta takrorlanib kelgan va mana shu raqamdagi so'z Qur'on kalimalarining 70% dan ortiqrog'ini o'z ichiga oladi. Ushbu ming atrofidagi so'zlar «lug'otul aksar» ya'ni, ko'p takrorlangan so'zlar (lug'atlar) deb aytiladi.

Qo'lingizdagi kitobning darslari ko'p takrorlanib kelgan so'zlar asosida tayyorlangan. Qur'onni o'rganuvchilar ma'lum bir miqordagi so'zlarning ma'nosini o'rganish bilan ko'proq oyatlarning ma'nosini tushunib oladilar degan maqsadda bu ish amalga oshirildi.

Kitobning uslubi:

Qo'lingizdagi ushbu kitob o'n oltita mashg'ulotdan iborat bo'lib, har bir dars bir muqaddima, o'nta Qur'oniy ibora, so'zlarning ikkita jadvali va uch xil mashqlardan tashkil topgan. Sakkizinchi va o'n oltinchi darslar, o'zimizni tekshirish uchun tayyorlangan bo'lib, oldingi darslarda eslatib o'tilgan mashqlarni o'z ichiga olgan.

Har bir darsdagi jadvalda tanish so'zlar va yangi so'zlar ma'nosi bilan keltirilgan. Har bir darsning Qur'oniy iboralari Qur'onda ko'p takrorlanib kelgan so'zlar asosida tanlangan. Tanish so'zlar Qur'oni Karimning shunday so'zlaridirki, ular o'zbek tilida ham qo'llanilib, ma'nolari ham ikkala tilda bir-biriga yaqindir. Tanish so'zlardan foydalanishdan maqsad, Qur'onni o'rganuvchilar uning ma'lumotlaridan bahramand bo'lib, uning oyatlarini osonlik bilan tushuna olishlari uchun shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Yangi so'zlar ham Qur'onda ko'p takrorlanib kelgan so'zlardir.

Har bir dars uchta mashqdan iboratdir.

Birinchi mashq ikki belgilik 20 ta savollardan tashkil topgan.

Ikkinchi mashqda o‘rganilayotgan darsning 10 ta Qur’oniy iboralari to‘g‘ri tarjima qilinib, yozilishi lozim.

Uchinchi mashq to‘rt savolni o‘z ichiga olgan bo‘lib, darsdagi Qur’oniy iboralar yoki mashqlar yordamida ularga javob bera olish mumkin. Uchinchi mashqni bajarish bilan Qur’on o‘rganuvchilar o‘z e’tiqodlarini mustahkamlab, diniy ta’limotlarni undan olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

## Birinchi dars

## Qur’on

## Allohni tanish kitobi

Buyuk Allohning madadi bilan Qur’oni Karim oyatlarining ma’nosini anglab, oyatlarni qanday tarjima qilishni o‘rganamiz.

Qur’on oyatlarini tushunish bilan Mehribon Allohni yaxshiroq taniymiz, U (Alloh) shunday Zotdirki, bizning Parvardigorimiz va Egamiz bo‘lib, bizni haq yo‘lga hidoyat qilish uchun Payg‘ambarimiz Muhammad *sallalohu alayhi va olihi vasallam* ni tanlagan. Ul hazrat Allohning kitobini bizga o‘rgatib, saodat va najot yo‘lini ko‘rsatganlar.

Yagona Allohga bizga bergan buyuk neьmatlari uchun hamdu sano aytib, Unga shukr qilamiz.

Ushbu dars va undan keyin keladigan darslarda Qur’oni Karim oyatlarining ma’nolari bilan ko‘proq oshno bo‘lamiz.

Quyidagi Qur'on iboralarini diqqat bilan o'qib, tarjima qiling.

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمنِ الرَّحِيم

| | | |
|---|---|---|
| ١ - | Hamd\1 | بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمنِ الرَّحِيم: |
| ٢ - | Hashr\22 | هُوَ اللَّهُ: |
| ٣ - | Raьd\30 | هُوَ رَبِّي: |
| ٤ - | Kahf\38 | اللَّهُ رَبِّي: |
| ٥ - | Hud\34 | هُوَ رَبُّكُمْ: |
| ٦ - | An'om\102 | اللَّهُ رَبُّكُمْ: |
| ٧ - | Hamd\2 | الْحَمْدُ لِلَّهِ: |
| ٨ - | Muhammad\19 | لا إِلهَ إِلاَّ اللَّهُ: |
| ٩ - | Fath\29 | مُحَمَّدٌ رَسولُ اللَّهِ: |
| ١٠ - | Baqara\218 | وَ اللَّهُ غَفُورٌ رَحِيمٌ: |

Quyidagi so‘zlarning ma’nosini anglab, ularni xotirangizda saqlang:

## Tanish so`zlar

| qator | ma’nolar | so`zlar | son |
|---|---|---|---|
| ١ | bilan, -ga, sababli | بِ | ko`p |
| ٢ | ism, nom | اِسم | 139 |
| ٣ | Alloh, Xudo | الله | 2815 |
| ٤ | mehribon | رَحْمان | 169 |
| ٥ | rahmli | رَحيم | 207 |
| ٦ | Parvardigor, Ega | رَبّ | 969 |
| ٧ | maqtov, hamdu sano, olqish | حَمْد | 43 |
| ٨ | elchi, yuborilgan | رَسُول | 236 |

## Yangi so‘zlar

| qator | ma’nolar | so‘zlar | soni |
|---|---|---|---|
| ١ | u | هُوَ | 478 |
| ٢ | mening, men | ى | ko`p |
| ٣ | sizning, sizlarning, sizlar | كم | ko`p |
| ٤ | uchun | لِ، لَ | ko`p |
| ٥ | yo‘q | لا | 1723 |
| ٦ | Iloh, Xudo | إلـه | 113 |
| ٧ | -dan boshqa, -dan o‘zga, magar | إلا | 657 |
| ٨ | ko‘p kechiruvchi, mag‘firatli | غَفُور | 91 |

Bu darsning tanish va yangi so‘zlari Qur’onda 7640 marta takrorlangan bo‘lib, ushbu raqamlar qarshisida «ko‘p» deb yozilgan so‘zlarni hisobga olmagan holda keltirilgan.

# Mashqlar

**Birinchi mashq:** Quyidagi to‘g‘ri javoblarni belgilang.

**Qaysi ma’no to‘g‘ri?**

| | | | |
|---|---|---|---|
| ١ - | a - yo‘q | b - dan boshqa | إِلاّ: |
| ٢ - | a - men | b - u | هُوَ: |
| ٣ - | a - men uchun | b - sizlar uchun | لَكُم: |
| ٤ - | a-ko‘p kechiruvchi | b-juda mehri-bon | غَفُور: |
| ٥ - | a- Mehribon | b-Parvardigor | الرَّحْمنِ: |

**Qaysi so‘z to‘g‘ri?**

| | | | |
|---|---|---|---|
| ١ - | uchun: | a- لِ | b- بِ |
| ٢ - | elchi: | a- غَفُور | b- رَسُول |
| ٣ - | Xudo: | a- رَحْمان | b- الله |
| ٤ - | maqtov: | a- حَمْد | b- رَحِيم |
| ٥ - | parvardigor: | a- الله | b- رَبّ |

**Qaysi tarjima to‘g‘ri?**

Tarjimada ayrim so‘zlarning o‘rni o‘zgartirilgan, diqqat qiling:

١. رَبِّىَ اللَّهُ:

a- U mening Parvardigorimdir.

b- Mening Parvardigorim Allohdir.

٢. اللَّهُ لا إِلَهَ إِلاَّ هُوَ:

a- Allohdan boshqa Parvardigor yo`q.

b- Alloh, Undan o`zga iloh yo`q.

٣. وَاللهُ سَرِيعُ الْحِسابِ:

a- Va Alloh tez hisob qiluvchidir.

b- Va U tez hisoblovchidir.

٤. وَهُوَ الغَفُورُ الرَّحِيمُ:

a- Va U Rahmli, Mag`firatlidir.

b- Va U Mag`firatli, Rahmlidir.

٥. رَبُّ الْمَشرِقِ وَ الْمَغرِبِ لا إِلَهَ إِلاَّ هُوَ:

a- Mashriq va Mag`rib Parvardigori, Undan boshqa Xudo yo`q.

b- Mashriqda va Mag`ribda Undan o`zga iloh yo`q.

**Qaysi ibora to‘g‘ri?**

١ . U sizlarning Parvardigoringizdir:

a- هُوَ رَبِّي

b- هُوَ رَبُّكُمْ

٢ . Muso va Horunning Parvardigori:

a- رَبِّ مُوسَى و هارُونَ

b- بِرَبِّ مُوسَى و هارُونَ

٣ . Va U Rahmli, Mag`firatlidir :

a- وَهُوَ الْغَفُورُ الرَّحِيمُ

b- وَهُوَ الرَّحِيمُ الْغَفُورُ

٤ . Mashriq va Mag`rib Alloh uchundir:

a- وَ لِلّهِ الْمَشرِقُ وَ الْمَغرِبُ

b- رَبُّ الْمَشرِقِ وَ الْمَغرِبِ

٥ . U Allohdir, Undan o`zga iloh yo`q :

a- هُوَ اللّه لا إِلهَ إِلاَّ هُوَ

اللّه لا إِلهَ إِلاَّ هُوَ b–

**Ikkinchi mashq:** Darsning boshlanishidagi Qur’on iboralarining tarjimasini o‘z bilimingiz darajasida yozing!

**Uchinchi mashq:** Darsda o‘rganilgan Qur’on iboralari va mashqlardan foydalanib, savollarga javob bering:

**١ -** Ishlarni qanday boshlash kyerak?

.................................................................................................

**٢ -** Maqtov va hamdu sano kim uchundir?

.................................................................................................

**٣ -** Mashriq va Mag‘rib kimnikidir?( kim uchundir?)

.................................................................................................

**٤ -** Allohning to‘rt sifatini bayon qiling

.................................................................................................

## Ikkinchi dars

### Alloh Olamning Parvardigori

Qur’onni tushunish bizlarni Qur’onga yaqin qiladi va Qur’on oyatlari ustida diqqat bilan fikr yuritish Qur’oniy odob va axloqni bizga o‘rgatadi.

Biz Qur’ondan Alloh Parvardigorimiz, Egamiz va bizga nisbatan Mehribon va gunohlarni Kechiruvchi Zot ekanligini o‘rganamiz.

Alloh mo‘ьminlarning Do‘sti va Boshlig‘i (Yo‘l boshchisi) va doim ularning YOru-birodaridir. SHuning uchun hamdu sano, maqtov va olqish YOlg‘iz Alloh uchundir. U shunday Zotdirki, Olamlarning Parvardigori va Egasidir.

Ushbu ma’nolarni darsda keltirilgan oyatlardan izlaymiz.

Quyidagi Qur’on iboralarini diqqat bilan o‘qib, tarjima qiling!

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمنِ الرَّحيم

١ - لَهُ الْحَمْدُ: Qasas\70

.......................................................................................................................

٢ - إِنَّ رَبَّكُمُ الله: A’rof\54

.......................................................................................................................

٣ - اللَّهُ رَبُّنا وَ رَبُّكُم: SHo`ro\15

.......................................................................................................................

٤ - قَالَ إِنِى عَبْدُ الله: Maryam\30

.......................................................................................................................

٥ - وَ اللَّهُ وَلِي الْمُؤْمِنِين: Oli Imron\68

.......................................................................................................................

٦ - وَ قَالَ اللَّهُ إِنِىّ[1] مَعَكُم: Moida\12

.......................................................................................................................

٧ - وَ أَنَّ اللَّهَ مَعَ الْمُؤْمِنِين: Anfol\19

.......................................................................................................................

٨ - وَكَانَ اللَّهُ غَفُورًا رَّحِيمًا: Niso\96

.......................................................................................................................

٩ - وَكَانَ بِالْمُؤْمِنِين رَحِيمًا: Ahzob\43

.......................................................................................................................

[1] إِني=إِن+ى

- ١٠ Hamd\2 الْحَمْدُ لِلّٰهِ رَبِّ الْعَلَمِينَ:

Quyidagi so‘zlarning maънosini o‘rganib, ularni xotirangizda saqlang!

## Tanish so‘zlar

| qator | ma’nolar | so‘zlar | son |
|---|---|---|---|
| ١ | banda, qul | عَبْد | ٢٨ |
| ٢ | do‘st, xoja, sarvar | وَلِيّ | ٤٤ |
| ٣ | imonli inson-lar, mo‘’minlar | مُؤْمِنِينَ | ١٤٤ |
| ٤ | olamlar | عالَمِينَ | ٧٣ |
| ٥ | o‘g‘il | اِبْن | ٤٠ |
| ٦ | qudrat, kuch | قُوَّة | ٢٩ |
| ٧ | amallar, ishlar | اَعمَال | ٤١ |
| ٨ | hamma, barcha | جَمِيعاً | ٥٣ |

## Yangi so`zlar

| qator | ma’nolar | so‘zlar | son |
|---|---|---|---|
| ١ | u, uning | ه ، هُ | ko‘p |
| ٢ | albatta, zotan | إِنَّ | 2442 |
| ٣ | biz , bizning | نَا | ko‘p |
| ٤ | aytdi, dedi | قَالَ | 529 |
| ٥ | albatta, -ligi, ekanligi | أَنَّ | 542 |
| ٦ | birga, bilan | مَعَ | 164 |
| ٧ | edi, bo‘lgan | كَانَ | 422 |
| ٨ | -dan, tomonidan | مِن | 3221 |

Bu darsning tanish va yangi so‘zlari 7772 marta Qur’onda kelgan, albatta bu raqam ro‘parasida «ko‘p» deb yozilgan so‘zlardan alohida holda hisobga olingan.

## Mashqlar

**Birinchi mashq:** Quyidagi javoblardan to‘g‘rilarini belgilang!

Qaysi ma’no to`g`ri?

| | | | |
|---|---|---|---|
| إِنّ: | b - dan | a – albatta | ١ - |
| مَعَ: | b - birga | a - biz | ٢ - |
| قَالَ: | b - edi | a - dedi | ٣ - |
| كَانَ: | b - aytdi | a - edi | ٤ - |
| عالَمِين: | b - olamlar | a- olimlar | ٥ - |

**Qaysi so‘z to‘g‘ri?**

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 - | o`g`lim: | a- اِبْنِي | b- اِبْنُهُ |
| 2 - | undan: | a- مِنهُ | b- مَعَهُ |
| 3 - | uning bandasi: | a- عَبْدُنا | b- عَبْدُهُ |
| 4 - | bizning Parvardigorimiz: | a- رَبُّنا | b- رَبِّي |
| 5 - | xoja, sarvar: | a- وَلِيٌّ | b- وَلِيِّي |

**Qaysi tarjima to‘g‘ri?**

١

رَسُولٌ مِنَ اللهِ:

a- Payg`ambar Allohning bandasidir.

b- Alloh tomonidan yuborilgan.

٢

قَالَ عِيسَى ابْنُ مَرْيَمَ:

a- Maryam o`g`li Iso dedi.

b- Iso Maryam o`g`lidir.

٣

اَنَّ القُوَّةَ للهِ جَمِيعاً:

a- Albatta barcha kuch-qudrat Allohnikidir

b- Albatta, uning hamma qudrati Allohnikidir.

٤

اِنَّهُ كَانَ غَفُوراً رَحِيماً:

a- Zotan, Alloh Mag`firatli, Rahmlidir.

b- Albatta, U ko`p Kechiruvchi, Rahmlidir.

٥

اِنَّ رَبِّى غَفُورٌ رَحِيمٌ:

a- Albatta, Xudo Mag`firatli, Rahmlidir.

b- Zotan, Parvardigorim Mag`firatli, Rahmlidir.

**Quyidagi iboralardan qaysi to‘g‘ri?**

- ١ Va Alloh sizlar bilandir:

a- وَاللهُ معكُم

b- انَّ اللهَ معَنا

- ٢ Parvardigorimiz Allohdir:

a- ربَّنا اللهُ

b- اللهُ رَبُّكُمْ

- ٣ Hech qudrat yo`q, magar Allohga(suyanar):

a- اَنَّ القُوَّةَ لله

b- لا قُوَّةَ الاّ باللهِ

- ٤ Albatta mening Xojam Allohdir:

a- انَّ وَلِيِّيَ اللهُ

b- فَاللهُ هُوَ الوَلِيُّ

- ٥ Bizlarning amallarimiz biz uchun va sizlarning amallaringiz siz uchundir:

a- لَكُم دِينُكُم وَلِى دِينِ

b- لَنا اَعمالُنا وَ لَكُم اَعمالُكُم

**Ikkinchi mashq**: Darsning boshida keltirilgan Qur’on iboralarini tarjima qilishga harakat qiling.

**Uchinchi mashq**: Darsda o‘rganilgan Qur’on iboralari va mashqlardan foydalanib, savollarga javob bering:

1. Mo‘’minlarning Xojasi kim?

2. Alloh kim bilan birga?

3. Barcha kuch-qudrat kimniki?

4. Bizlarning Egamiz va Parvardigorimiz kim?

# Uchinchi dars

## Allohga hamdu sano va maqtov

Alloh YAgona Zot, hamma narsalarning YAratguvchisi, barcha qudratlarning nigizi, ilmu-ma’rifat va yaxshiliklar asosidir.

SHuning uchun biz Uning cheksiz ne’matlariga shukr qilishimiz kyerak.

Qur’oni Karim «*Alhamdulilloh*»dek go‘zal so‘zni aytish bilan Allohga hamdu sano deb, Unga shukr qilishni bizga o‘rgatadi.

Allohga hamdu sano aytib, «*Alhamdulilloh*»ni tilga olish ila, Allohni yaxshilik bilan yodga olamiz va Uning bepoyon ne’matlariga shukr qilamiz.

Hamdu sano va shukrlar Yolg‘iz Alloh uchundir, U shunday Zotki, hamma Olamlarning YAratguvchisidir. Barcha ne’matlar Undan bo‘lib, U eng yaxshi ajru-mukofotlarni yaxshi amallar uchun ato qiladi.

Ushbu tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’nolarni darsda keltirilgan oyatlardan izlaymiz.

Quyidagi Qur’on iboralarini diqqat bilan o‘qib, tarjima qiling.

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمنِ الرَّحيم

قُلِ الْحَمْدُ لِلَّهِ: — Naml\59

ثَوَابُ اللَّهِ خَيْرٌ: — Qasos\80

قَالُواْ لَا عِلْمَ لَنَا: — Moida\109

وَ هُوَ رَبُّ كُلِّ شَيْءٍ: — An’om\164

وَ قَالُواْ الْحَمْدُ لِلَّهِ: — A’rof\43

إِنَّ اللَّهَ رَبِّى وَ رَبُّكُمْ: — Oli Imron\51

قَالَ هَذَا رَحْمَةٌ مِّن رَّبِّى: — Kahf\98

قُلِ اللَّهُ خَالِقُ كُلِّ شَيْءٍ: — Ra’d\16

فَعِنْدَ اللَّهِ ثَوَابُ الدُّنْيَا وَ الْآخِرَةِ: — Niso\134

وَ قَالَ مُوسَى يَافِرْعَوْنُ إِنِّى رَسُولٌ مِّن رَّبِّ الْعَالَمِينَ: — A’rof\104

Quyidagi so'zlarning ma'nosini o'rganib, ularni xotirangizda saqlang.

## Tanish so`zlar

| qator | ma'nolar | so'zlar | son |
|---|---|---|---|
| 1. | ajr-savob | ثَوَاب | 13 |
| 2. | Yaxshiroq | خَيْرٌ | 176 |
| 3. | ilm, bilim, bilmoq | عِلْم | 105 |
| 4. | har bir, har, hamma, barcha | كُلّ | 374 |
| 5. | narsa | شَىء | 279 |
| 6. | rahmat, marhamat | رَحْمَةٌ | 114 |
| 7. | yaratuvchi | خَالِق | 8 |
| 8. | ahli oila, xonadon | اَهْل | 127 |

## Yangi so`zlar

| qator | ma’nolar | so‘zlar | son |
|---|---|---|---|
| 1. | ayt, degin | قُل | 332 |
| 2. | aytdilar, dedilar | قَالُواْ | 331 |
| 3. | bu | هَذَا | 225 |
| 4. | bas, demak | فَ | ko‘p |
| 5. | oldida, yonida, huzurida nazdida | عِند | 197 |
| 6. | ey | يَا | 361 |
| 7. | - ga, ustiga, zimmasiga | عَلَى ، عَلَى، | 1445 |

Bu darsning tanish va yangi so‘zlari Qur’onda 4087 marta takrorlangan holda kelgan.

## Mashqlar

**Birinchi mashq:** Quyidagi to‘g‘ri javoblarni belgilang.

Qaysi ma’no to‘g‘ri?

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1. | a – ey | **b** - yo | يَا: |
| 2. | a - dedi | **b** - degin | قُل: |
| 3. | a - bu | **b** – u | هَذَا: |
| 4. | a - ga | **b** - yonida | عِند: |
| 5. | a- dedilar | **b** - dedi | قَالُوا: |

**Qaysi so‘z to‘g‘ri?**

١. Bizga: a- عَلَيْنَا b- مَعَنَا

٢. Hammasi: a- كُلُّهُ b- عِنْدَهُ

٣. Mening xonadonim: a- اَهْلُهُ b- اَهْلِى

٤. Rahmatiga: a- بِرَحْمَتِه b- بِرَحْمَتِنَا

٥. Elchisi uchun: a- بِرَسُولِى b- لِرَسُولِهِ

**Qaysi tarjima to‘g‘ri?**

١ .
وَ لَهُ كُلُّ شَيْءٍ:

a- va hamma narsa Alloh uchundir.

b- va barcha narsa U uchundir.

٢ .
مِنْ عِنْدِ اللهِ: هُوَ

a- U Xudoning bandasidir.

b- U Alloh huzuridandir.

٣ .
قُلْ هُوَ الرَّحْمَانُ:

a- dedi: U(Xudo) Mehribondir.

b- degin: U(Alloh) Mehribondir.

٤ .
وَقَالَ فِرْعَونُ يا هَامَانُ:

a- va ey Fir’avn, Homonga degin.

b- va Fir’avn dedi: Ey Homon.

٥ .
وَكُلُّ شَيْءٍ عِنْدَهُ بِمِقْدَارٍ:

a- Va har bir narsa Uning oldida miqdori bilandir.

b- Va Uning har bir narsasi miqdori bilandir.

**Qaysi ibora to‘g‘ri?**

- ١ Muso unga dedi:

a- قال موسى
b- قال له موسى

- ٢ Hamma Parvardigorimiz huzuridandir:

a- كُلٌّ من عنْد الله
b- كُلٌّ من عنْد ربِّنا

- ٣ Dedilar: « ey Muso »:

a- قالُوا يا موسى
b- قال يا موسى

- ٤ Bas degin « salom sizlarga »:

a- فقُلْ سلاَمٌ علَيْكُمْ
b- قال سلاَمٌ علَيْكُمْ

- ٥ Undan boshqa Xudo yo`q, u barcha narsaning YAratguvchidir:

a- خالقُ كُلِّ شىْء لاَ الَه الاَّ هُوَ
b- لاَ الَه الاَّ هُوَ خالقُ كُلِّ شىْءٍ

**Ikkinchi mashq:** Darsning boshida keltirilgan Qur’on iboralarini tarjima qiling.

**Uchinchi mashq:** Darsda o‘rganilgan Qur’on iboralari va mashqlardan foydalanib, savollarga javob bering:

١ - Kimning ajru savobi yaxshiroq?

---

٢ - Kim hamma narsaning yaratuvchisi?

---

٣ - Dunyo va Oxiratning savobi kimning huzuridadir?

---

٤ - Hazrati Muso *(alayhis salom)* o‘zini kim tomonidan yuborilgan elchi deb tanishtirdi?

---

# To‘rtinchi dars

## Mo‘’minlarning do‘sti va sarvari

O‘tilgan darslarda Qur’oni Karim oyatlarini tushunish natijasida Mehribon Allohga nisbatan bo‘lgan ma’rifatimiz yanada ko‘proq oshdi.

Alloh shunday Zotki, U Yer va osmonlar Parvardigori bo‘lib, biz uchun son-sanoqsiz ne’matlar ato etgan.

Alloh shunday Zotki, hurmatu izzat, kuch-qudrat va buyuklik Unikidir va Payg‘ambari Muhammad (sallallohu alayhi va olihi vasallam)ga hamda mo‘’minlarga bu kabi izzat va yuksaklikni ato etgan.

Biz doim Buyuk Allohni va Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.a) ni va Ma’sum Imomlarimizni o‘zimiz uchun do‘st va rahbar sifatida tan olib, ularga ergashamiz, chunki shu orqali dunyo va oxiratda izzat va yuksaklikka erishamiz deb umid qilamiz.

Ushbu oliy ma’nolarni darsda o‘rganilgan oyatlardan izlaymiz.

Quyidagi Qur’on iboralarini diqqat bilan o‘qib, tarjima qiling:

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمنِ الرَّحِيم

١ - Baqara\247
وَ قَالَ لَهُمْ نَبِيُّهُم:

٢ - Toho\98
إِنَّمَا[2] إِلَاهُكُمُ اللهُ:

٣ - YUnus\65
إِنَّ الْعِزَّةَ لِلَّهِ جَمِيعًا:

٤ - Baqara\257
اللَّهُ وَلِيُّ الَّذِينَ ءَامَنُوا:

٥ - An’om\109
قُلْ إِنَّمَا الآيَاتُ عِندَ اللَّهِ:

٦ - Oli Imron\19
إِنَّ الدِّينَ عِندَ اللَّهِ الْاسْلَام:

٧ - Nahl\77
وَ لِلَّهِ غَيْبُ السَّمَاوَاتِ وَ الْأَرْضِ:

٨ - Kahf\14
فَقَالُواْ رَبُّنَا رَبُّ السَّمَاوَاتِ وَ الْأَرْضِ:

٩ - Munofiqin\8
وَ لِلَّهِ الْعِزَّةُ وَ لِرَسُولِهِ وَ لِلْمُؤْمِنِينَ:

١٠ - Moida\55
إِنَّمَا وَلِيُّكُمُ اللَّهُ وَ رَسُولُهُ وَ الَّذِينَ ءَامَنُوا:

---

2. «انما» kalimasi o‘zidan keyingi so‘zdan so‘ng tarjima qilinadi.

Quyidagi so‘zlarning ma’nosini o‘rganib, ularni xotirangizda saqlang.

## Tanish so‘zlar

| qator | ma’nolar | so‘zlar | son |
|---|---|---|---|
| ١ | izzat va yuksaklik | عِزَّة | 11 |
| ٢ | belgilar, alomatlar, oyat, mo‘’jizalar | آيَات | 295 |
| ٣ | g‘oyib, g‘ayb sirlar | غَيْب | 49 |
| ٤ | do‘stlar, xojalar, egalar | اولِيَاء | 42 |
| ٥ | qavm, guruh | قَوم | 383 |
| ٦ | darajalar, martabalar | دَرَجات | 14 |
| ٧ | mag‘firat, kechirish | مَغْفِرَة | 28 |

## Yangi so‘zlar

| qator | ma’nolar | so‘zlar | son |
|---|---|---|---|
| ١ | ularning, ular | هُم، هِم | ko‘p |
| ٢ | payg‘ambar | نَبِيّ | 54 |
| ٣ | faqat | إِنَّمَا | 146 |
| ٤ | shunday kishilarki, - ganlar | الَّذِينَ | 1080 |
| ٥ | imon keltirdilar | ءَامَنُوا | 258 |
| ٦ | osmonlar | السَّمَاوَاتِ | 190 |
| ٧ | yer | أَرض | 461 |
| ٨ | - da | فِي | 1692 |

Bu darsning tanish va yangi so‘zlari Qur’onda 4703 marta takrorlangan holda kelgan.

## Mashqlar

**Birinchi mashq:** Quyidagi to'g'ri javoblarni belgilang.

Qaysi ma'no to`g`ri?

| | | | |
|---|---|---|---|
| ١ | a – faqat | b - albatta | إِنَّمَا: |
| ٢ | a - yer | b - osmon | الْأَرْض: |
| ٣ | a – imon keltirsinlar | b – imon keltirdilar | ءَامَنُوا: |
| ٤ | a – shunday ki-shiki | b – shunday kishilarki | الَّذِينَ: |
| ٥ | a- alomatlar | b - osmonlar | السَّماوَاتِ: |

Qaysi so`z to`g`ri?

| | | | |
|---|---|---|---|
| ١ | Unda: | a- فِيْهِ | b- عَلَيْهِ |
| ٢ | Payg`ambarlari: | a- وَلِيُّهُمْ | b- نَبِيُّهُمْ |
| ٣ | ular uchun: | a- لَهُمْ | b- لَكُمْ |
| ٤ | xojangiz : | a- وَلِيُّكُمْ | b- وَلِيُّهُمْ |
| ٥ | Parvardigorlari uchun: | a- بِرَبِّهِمْ | b- لِرَبِّهِمْ |

**Qaysi tarjima to'g'ri?**

۱ .

فَقَالَ لَهُمْ رَسُولُ اللهِ:

a- Bas, Allohning elchisiga dedilar.

b- Demak, Allohning elchisi ularga dedi.

۲ .

فَاِنَّمَا حِسَابُهُ عِنْدَ رَبِّهِ:

a- Demak, albatta uning hisobi Parvardigor huzuridadir.

b- Bas, uning hisobi faqat Parvardigori huzuridadir.

۳ .

وَهُوَ اللهُ فِى السَّمَاوَاتِ وَ فِى الْاَرْضِ:

a- Va U osmonlar va yerning Allohidir.

b- Va U Alloh osmonlarda va yerdadir.

۴ .

لَهُمْ دَرَجَاتٌ عِنْدَ رَبِّهِم:

a- Ular uchun Parvardigorlari huzurida darajalar bor.

b- Sizlar uchun Parvardigoringiz huzurida darajalar bor.

۵ .

فقَالَ اِنِّى رَسُولُ رَبِّ الْعَالَمِينَ:

a- Bas, dedi: albatta u Olamlar

Parvardigorining elchisidir.

b- Demak, dedi: zotan men olamlar Parvardigorining elchisidirman.

**Qaysi ibora to‘g‘ri?**

١ Oilasiga dedi:

a- قَالَ لِقَوْمِهِ

b- قَالَ لِأَهْلِهِ

٢ Va Payg`ambarlari ularga dedi:

a- وَقَالَ اَوْلِيَائُهُمْ

b- وَقَالَ لَهُمْ نَبِيُّهُمْ

٣ Va Parvardigorlari tomonidan mag`firat(kechirish):

a- وَمَغْفِرَةٌ مِن رَبِّهِمْ

b- وَمَغْفِرَةٌ مِن اللهِ

٤ Muso qavmiga dedi:

a- وَقَالَ مُوسَى يَاقَوْمِ

b- قَالَ مُوسَى لِقَوْمِهِ

٥ Degin (qiyomat kunini) bilish faqat Alloh huzuridadir:

a- قُلْ اِنَّمَا الْعِلْمُ عِنْدَ اللهِ

b- قُلْ اِنَّمَا الْغَيْبُ لِلّٰهِ

**Ikkinchi mashq:** Dars boshida keltirilgan Qur’on iboralarini tarjima qiling.

**Uchinchi mashq:** Darsda o‘rganilgan Qur’on iboralari va mashqlardan foydalanib, savollarga javob bering:

**١ -** Izzat va yuksaklik kimlar uchun?

..........................................................................................

**٢ -** Qaysi din Alloh huzurida haqiqiy din hisoblanadi?

..........................................................................................

**٣ -** Yer va osmonlarning g‘ayb sirlarini (bilish) kim uchun?

..........................................................................................

**٤ -** Mo‘’minlarning do‘sti va sarvari kimlar?

..........................................................................................

## Beshinchi dars

### Qur’on - hidoyat kitobi

Alloh Taolo insonlarni hidoyat qilish uchun Payg‘ambarlar va munosib rahbarlarni tanlagan.

Payg‘ambarlar Allohning eng yaxshi va xolis bandalari, ular insonlarni haq va saodatli yo‘lga boshlash uchun Alloh tomonidan hidoyat etguvchi hujjat va dalillarni keltirganlar. Bu insonlar uchun Allohning eng buyuk ne’mati va marhamatidir.

Qur’oni Karim Parvardigorning haq so‘zi bo‘lib, u Alloh tarafidan yuborilgan eng ustun va oxirgi kitobdir. Bu kitob hamma insonlar uchun ochiq-oydin dalil va abadiy pand-nasihatdir.

Qur’oni Karim Alloh tomonidan bo‘lgan shunday nur-yorug‘likdirki, u najot va saodat yo‘lini ziyonkorlik va fasod yo‘lidan ajratib, oydinlashtirib beradi.

Darsda keltirilgan oyatlardan yuqoridagi ma’nolarni izlash bilan, ko‘proq Qur’on hidoyati sari yuzlanamiz.

Quyidagi Qur’on iboralarini diqqat bilan tarjima qiling:

بِسْمِ اللّهِ الرَّحْمنِ الرَّحيم

Asro’\81

١ - وَ قُلْ جاءَ الْحَقّ:

........................................................................................................................

Oli Imron\138

٢ - هَذَا بَيَانٌ لِّلنَّاسِ:

........................................................................................................................

Ahqof\15

٣ - وَ إِنيِّ مِنَ الْمُسْلِمِينَ:

........................................................................................................................

Oli Imron\114

٤ - وَ أُوْلَئِكَ مِنَ الصَّالِحِينَ:

........................................................................................................................

Hud\66

٥ - إِنَّ رَبَّكَ هُوَ الْقَوِىُّ الْعَزِيزِ:

........................................................................................................................

Maorij\24

٦ - وَ الَّذِينَ فِي أَمْوَالِهِمْ حَقٌّ مَّعْلُومٌ:

........................................................................................................................

Moida\15

٧ - قَدْ جَاءَكُم مِّنَ اللّهِ نُورٌ وَ كِتَابٌ مُّبِينِ:

........................................................................................................................

YUnus\57

٨ - يَأَيُّهَا النَّاسُ قَدْ جَاءَتْكُم مَّوْعِظَةٌ مِّن رَّبِّكُم:

........................................................................................................................

YUnus\108

٩ - قُلْ يَأَيُّهَا النَّاسُ قَدْ جَاءَكُمُ الْحَقُّ مِن رَّبِّكُمْ:

........................................................................................................................

A’rof\158

١٠ - قُلْ يَأَيُّهَا النَّاسُ إِنيِّ رَسُولُ اللّهِ إِلَيْكُمْ جَمِيعًا:

........................................................................................................................

Quyidagi so‘zlarning ma’nosini o‘rganib, ularni xotirangizda saqlang.

## Tanish so`zlar

| qator | ma’nolar | so‘zlar | son |
|---|---|---|---|
| ١ | bayon, bayon qiluvchi | بَيَان | ٣ |
| ٢ | solih bandalar | صَالِحين | ٣٦ |
| ٣ | kuchli, qudratli | قَوِىّ | ١١ |
| ٤ | izzatli, engilmas | عَزِيز | ٩٩ |
| ٥ | mollar, boyliklar | اَموال | ٦١ |
| ٦ | ma’lum, muayyan | مَعْلُوم | ١١ |
| ٧ | pand-nasihat | مَوْعِظَة | ٩ |
| ٨ | egalar, hamrohlar | اَصْحَاب | ٧٨ |

## Yangi so`zlar

| qa tor | ma’nolar | so‘zlar | so n |
|---|---|---|---|
| ١ | keldi | جاءَ ، جاءَ ت | ٢١٥ |
| ٢ | insonlar, xalq | ناس | ٢٤٠ |
| ٣ | ular | أُوْلَئِك | ٢٠٤ |
| ٤ | sening, sen | كَ | ko‘p |
| ٥ | darhaqiqat, shubhasiz, haqiqatan, muhaqqaq, aniqki | قَد | 406 |
| ٦ | ochiq-oydin | مُبِين | 119 |
| ٧ | ey | يا اَيُّها | 150 |
| ٨ | -ga, tomoniga | اِلَى ، اِلي | 742 |

Bu darsning tanish va yangi so‘zlari Qur’onda 2374 marta takrorlangan holda kelgan.

## Mashqlar

**Birinchi mashq:** Quyidagi to‘g‘ri javoblarni belgilang.

**Qaysi ma’no to‘g‘ri?**

| | | | |
|---|---|---|---|
| ١ | a – keladi | b - keldi | جاءَت: |
| ٢ | a - insonlar | b - inson | النَّاس: |
| ٣ | a – shunday ki-shiki | b – ey | يٰأَيُّهَا: |
| ٤ | a – ular | b – shunday ki-shilarki | أُولٰئِك: |
| ٥ | a- egalar | b - solih ban-dalar | اَصْحَاب: |

**Qaysi so‘z to‘g‘ri?**

| | | | |
|---|---|---|---|
| ١ | darhaqiqat: | a- اِنَّمَا | b- قَد |
| ٢ | ochiq-oydin: | a- مُبِينٌ | b- بَيَان |
| ٣ | mollaringiz: | a- اَمْوالُكُم | b- اَمْوالُنا |
| ٤ | Parvardigoring: | a- رَبُّكَ | b- رَبِّى |
| ٥ | sizlarga: | a- فِيكُم | b- اِلَيْكُم |

**Qaysi tarjima to‘g‘ri?**

١ . اَلْحَقُّ مِن رَبِّکَ:

a- Parvardigoring haqdir.

b- Haq Parvardigoring tomonidandir.

٢ . اِنَّهُ مِنَ الصَّالِحِينَ:

a- Albatta, U iymon keltirganlardandir.

b- Zotan, U solih bandalardandir.

٣ . اِنَّ اللهَ قَوِیٌّ عَزِيزٌ:

a- Albatta, Alloh kuchli, engilmasdir.

b- Zotan, U kuchli, engilmaydigan Zotdir.

٤ . قالَ هَذا مِنْ عَمَلِ الشَّيْطانِ:

a- Dedi: bu SHayton ishidir.

b- Dedi: bu SHayton ishlaridan biridir.

٥ . وَ هُوَ الْحَقُّ مِن رَبِّهِم:

a- Va u (so`z) Parvardigori tomonidan haqdir.

b- Va u (so`z) Parvardigorlari tomonidan haqdir.

**Qaysi ibora to'g'ri?**

- ١ Musoning hamrohlari dedilar:

a- قَالَ مُوسَى لِقَوْمِهِ

b- قَالَ اَصْحَابُ مُوسَى

- ٢ Parvardigoringdan rahmat:

a- رَحْمَةً من رَبِّكَ

b- رَحْمَةً من رَبِّى

- ٣ Haqiqatan, sizlarga elchimiz keldi:

a- قَدْ جَاءَتْكَ آيَاتِى

b- قَدْ جَاءَكُم رَسُولُنَا

- ۴ Dedi: Bu mening Parvardigorimdir:

a- قَالُوا رَبُّنَا اللهُ

b- قَالَ هَذَا رَبِّى

- ۵ Albatta u Parvardigorimiz tomonidan(bo`lgan) haqdir:

a- اَنَّهُ الْحَقُّ مِن رَبِّهِمْ

b- اِنَّهُ الْحَقُّ مِن رَبِّنَا

**Ikkinchi mashq:** Dars boshida keltirilgan Qur'on

iboralarini tarjima qiling.

**Uchinchi mashq:** Darsda o‘rganilgan Qur’on iboralari va mashqlardan foydalanib, savollarga javob bering:

١ - Haq kim tomonidan insonlarga kelgan?

..........................................................................................

٢ - Qur’on o‘zini insonlarga qanday tanitadi?

..........................................................................................

٣ - Muhammad(s.a.v) kimning elchisidir?

..........................................................................................

٤ - Qur’onning besh sifatini yozing.

..........................................................................................

## Oltinchi dars

## Qiyomat - qayta tirilish

Hamdu sano va shukrlar faqat Alloh uchundir. U shunday Zotki, yer va butun olamlar Parvardigoridir. Yer va osmonlarni yaratish insonlarni yaratishdan buyukroq bo‘lib, bu Allohning yuksakligi va qudratining belgisidir.

Bu buyuk yaratish behuda va maqsadsiz emas.

Inson ham behuda yaratilmagan va o‘limdan so‘ng qiyomat kunida qayta tirilajak.

Qur’oni Karim bizni Ilohiy buyuk qayta tirilish va uning qanday yuzaga kelishi va oxiratdagi hayot bilan tanishtirib, insonning dunyodagi nasibasi juda oz va o‘tkinchi, lekin oxiratdagi xayot yaxshiroq va manguligi haqida ogohlantiradi.

Qur’onning ko‘p oyatlarida mo‘’minlarning jannatdagi saodatli hayotlari, kofirlar va zolimlarning do‘zaxdagi dardli va xor-zalil holidagi hayotlari bayon etilgan.

Qiyomat kunida hech kimga zarrachalik ham zulm va sitam qilinmaydi va har kim qilgan amallarining natijasini ko‘rgay.

Bu arzigulik ma’nolarni darsda o‘rganayotgan oyatlardan izlaymiz.

Darsning Qur’oniy iboralarini diqqat bilan tarjima qiling.

بِسْمِ اللّه الرَّحْمنِ الرَّحيم

| | | |
|---|---|---|
| هَذَا يَوْمُ الدِّينِ: | Soffot\20 | ١ - |
| مَالِك يَوْمِ الدِّينِ: | Hamd\4 | ٢ - |
| قُلْ إِنَّمَا أَنَا بَشَرٌ مِّثْلُكُم: | Kahf\110 | ٣ - |
| إِنَّ فِي ذَالِكَ لآيَةً لِّلْمُؤْمِنِينَ: | Hajar\77 | ٤ - |
| كَيْفَ كَانَ عَاقِبَةُ الظَّالِمِينَ: | YUnus\39 | ٥ - |
| قُلْ مَتَاعُ الدُّنْيَا قَلِيلٌ وَ الاَخِرَةُ خَيرٌ: | Niso\77 | ٦ - |
| لاَ ظُلْمَ الْيَوْمَ إِنَّ اللّهَ سَرِيعُ الحِسَاب: | G`ofir\17 | ٧ - |
| إِنَّ فِي السَّمَاوَات وَ الْأَرْضِ لآيَاتٍ لِّلْمُؤْمِنِينَ: | Josiya\3 | ٨ - |
| لَخَلْقُ السَّمَاوَاتِ وَ الْأَرْضِ أَكْبَرُ مِنْ خَلْقِ النَّاسِ: | G`ofir\57 | ٩ - |
| فَلِلّه الْحَمْدُ رَبِّ السَّمَاوَاتِ وَ رَبِّ الْأَرْضِ رَبِّ الْعَالَمِينَ: | Josiya\36 | ١٠ - |

Quyidagi so‘zlarning ma’nosini o‘rganib, ularni xotirangizda saqlang.

## Tanish so‘zlar

| qator | ma’nolar | so‘zlar | son |
|---|---|---|---|
| ١ | ega, sohib | مَالِك | 3 |
| ٢ | inson | بَشَر | 36 |
| ٣ | belgi, alomat, oyat-mu’jiza | آيَة | 86 |
| ٤ | oqibat | عَاقِبَة | 32 |
| ٥ | zulm, sitam | ظُلْم | 20 |
| ٦ | buyukroq, kattaroq | اَكبَر | 23 |
| ٧ | yaratmoq, yaratish, yaratilish | خَلْق | 52 |
| ٨ | o‘xshash, kabi, -dek | مِثْل | 75 |
| ٩ | zolimlar, sitam-korlar | ظالِمِينَ، ظالِمُونَ | 124 |

## Yangi so‘zlar

| qator | ma’nolar | so‘zlar | son |
|---|---|---|---|
| ١ | kun | يَوم | 318 |
| ٢ | qiyomat kuni | يَومُ الدِّينِ | 13 |
| ٣ | men | اَنَا | 68 |
| ٤ | bu, ushbu, o‘sha | ذالِكَ | 430 |
| ٥ | darvoqe | لَ | ko‘p |
| ٦ | qanday, qanaqa | كَيْفَ | 83 |
| ٧ | mato, mol-mato | مَتَاع | 34 |
| ٨ | oz, kam | قَلِيل | 69 |
| ٩ | bugun | اَلْيَوم | 43 |

Bu darsning tanish va yangi so‘zlari Qur’onda 1509 marta takrorlangan holda kelgan.

## Mashqlar

**Birinchi mashq:** Quyidagi to‘g‘ri javoblarni belgilang.

**Qaysi ma’no to‘g‘ri?**

| | | | |
|---|---|---|---|
| ١ | a – biz | b - men | أَنا: |
| ٢ | a – bugun | b - kun | يَوْم: |
| ٣ | a – ushbu | b – u | ذَالِكَ: |
| ٤ | a – yaratdi | b – yaratish | خَلْق: |
| ٥ | a- qanday | b - qayer | كَيْفَ: |

**Qaysi so‘z to‘g‘ri?**

| | | | |
|---|---|---|---|
| ١. | oz: | a- قَلِيل | b- مَتَاع |
| ٢. | undek: | a- مِثْلُهُ | b- مِثْلُهُم |
| ٣. | uning yaratishi: | a- خَلْقَهُ | b- خَلْقَهُم |
| ٤. | darvoqe, alomat: | a- لآيةً | b- لآياتٌ |
| ٥. | zulmlari sababli: | a- بِظُلْمٍ | b- بِظُلْمِهِم |

**Qaysi tarjima to‘g‘ri?**

١ - إِنَّ[1] قَارُونَ كَانَ مِنْ قَوْمِ مُوسَى:

a- Qorun Musoning qavmidan edi.
b- Qorun Musodan keyin edi.

٢ - قُلْ كُلٌّ مِنْ عِنْدِ اللَّه:

a- Degin: Hamma Allohning nazdidandir.
b-Degin: Hamma Alloh tomonidan kelgandir.

٣ - إِنَّ اللَّهَ كَانَ بِكُمْ رَحِيمًا:

a- Albatta, Allohingiz Rahmlidir.
b- Zotan, Alloh sizlarga Rahmlidir.

٤ - وَ إِنَّ رَبَّكَ لَهُوَ الْعَزِيزُ الرَّحِيمُ:

a- Zotan, uning Parvardigori engilmas, rahmlidir.
b- Albatta, Parvardigoring engilmas, rahmlidir.

٥ - ذَلِكَ يَوْمُ الْخُرُوجِ[2]:

a- O`sha (Qiyomat kuni) chiqish kunidir.
b- Bugun (Qiyomat kuni) chiqish kunidir.

---

1. Ba’zi vaqt « إِنَّ » tarjima qilinmaydi.
2. « خروج»  so‘zi «chiqish» yoki «chiqmoq» ma’nosini anglatadi.

**Qaysi ibora to‘g‘ri?**

١ Va degin: Maqtov maxsus Alloh uchundir:

a- وَ قَالُوا الْحَمدُ لِلّه

b- وَ قُلِ الْحَمدُ لِلّه

٢ Bu Allohning belgilaridandir:

a- ذَالِکَ مِنْ آیاتِ اللهِ

b- اِنَّ فِی ذَالِکَ لَآیَاتٍ

٣ Albatta Alloh mag`firatli, rahmlidir:

a- اِنَّ اللهَ کانَ غَفُوراً رَحِيماً

b- وَ کانَ اللهُ غفُوراً رَحِيماً

۴ Degin: mashriq va mag`rib Alloh uchundir:

a- قالَ رَبُّ الْمَشرِقِ و الْمَغرِبِ

b- قُل لِلّهِ الْمَشرِقُ وَ الْمَغرِبُ

۵ Ulardan oldingi kishilarning oqibati qanday edi:

a- كَيْفَ كانَ عاقِبَةُ الَّذِينَ مِنْ قَبْلِهِمْ

b- كَيْفَ كانَ عاقِبَةُ الَّذِينَ مِنْ قَبْلِكُمْ

**Ikkinchi mashq:** Darsda o‘rganilgan Qur’on iboralarini tarjima qiling.

**Uchinchi mashq:** Darsda o‘rganilgan Qur’on iboralari va mashqlardan foydalanib, savollarga javob bering:

١ - Qorun qaysi Payg‘ambarning qavmidan edi?

........................................................................................................

٢ - Alloh dunyodan bahramand bo‘lishni qanday tasvirlagan?

........................................................................................................

٣ - Yer va osmonlarni yaratish buyukroqmi yoki insonlarni yaratish?

........................................................................................................

٤ - Kimlar uchun yer va osmonlarda Alloh tomoniga hidoyat qiluvchi belgilar bor?

........................................................................................................

# Ettinchi dars

## Payg‘ambarlar mehribon muallimdirlar

Payg‘ambarlar insonlarning eng yaxshi va mehribon tarbiyachisidirlar. Ular qilgan mehnatlari va hidoyat yo‘lida chekkan mashaqqatlari uchun insonlardan hech qanday mehnat haqi umidida bo‘lmacdan, ularni hidoyat yo‘liga boshqarar va ularni tarbiyalar edilar.

Payg‘ambarlar bizlarga Alloh insonning haqiqiy do‘sti va yori deb o‘rgatganlar. Kimki Allohga imon keltirib, payg‘ambarlarning ko‘rsatmalariga amal qilsa, Allohning huzurida buyuk ajru-mukofotga ega bo‘lgay.

Ayrim insonlar turli xil bahonalar bilan Allohga imon keltirishdan va payg‘ambarlarning yo‘l-yo‘riq va ko‘rsatmalariga amal qilishdan bo‘yin tovlardilar. Ular payg‘ambarlar ham o‘zlari singari insonlar bo‘lganliklari uchun ularga ergashishdan bosh tortardilar.

Allohning oyat-mo‘’jizalari va belgilarini ko‘ra turib ham, payg‘ambarlarga imon keltirmagan kimsalar chinakam kofir va o‘zlari uchun zolimdirlar. Qur’oni Karimning bir qator oyatlari biz ibrat olishimiz uchun e’tiborimizni zolim va sitamkorlarning dardli, azobli va mudhish oqibatlariga jalb etadi.

Ushbu ma’nolarni darsda o‘rganadigan oyatlardan izlaymiz.

.

